

# O'ZBEKISTONNI YIRIK RESURS SHAHARLARI VA ULAR NEGIZIDA AGLOMERATSIYALARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

**Xabibullayeva Muslima Nurullo qizi, Sarikulov Mirkomil Olimovich**

*Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo`nalishi 1- bosqich talabasi, Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya va geografiya o`qitish metodikasi kofedrasi o`qituvchisi.*

*Andijon shahri Do'stilk ko'chasi 2-uy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonni yirik resurs shaharlari va ular negizida aglomeratsiyalarning shakllanish bosqichlari , aholi sonining o'sib borishi, sanoat rivojlanishi , yirik resurs shaharlarida yanada keng ko'lamda rivojlanish ishlarini olib borish va bu shaharlarni kelajak istiqbollari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston yirik resurs shaharlari, aglomeratsiya, shahar, diversifikatsiya, urbanizatsiya, sanoat korxonolari.

## STAGES OF FORMATION OF LARGE RESOURCE CITIES OF UZBEKISTAN AND AGGLOMERATIONS BASED ON THEM

**Abstract:** This article describes Uzbekistan's major resource cities and the stages of formation of agglomerations based on them, population growth, industrial development, further development of major resource cities , and future prospects of these cities.

**Key words:** large resource cities of Uzbekistan, agglomeration, city, diversification, urbanization, industrial enterprises.

### KIRISH

"Shahar" forscha so'z bo'lib, "qal'a"( rus tilida "gorod"-ogorodit, ya'ni o'rab olmoq) ma'nosini anglatadi. O'zbekistonda qadimda poytaxtlar , yirik ma'muriy va diniy markazlar, savdo-sotiq,markazlari shahar deb yurutilgan va miqdoriy ko'rsatkichlar asos qilib olinmagan.Mamlakatimiz shaharlarini o'rganishda, ularni bunyod etilganligidan boshlab, hozirgi kungacha bosib o'tgan yo'lidagi asosiy tarixiy, davriy voqealar o'rganilib chiqadi. Shaharlar duch kelgan yerda o'z - o'zidan vujudga kelavermaydi, ular qulay geografik o'rinda, aholi ehtiyojiga ko'ra, turli omillar ta'sirida shakllanadi.Mustaqilikka erishganimizdan so'ng yurtimizdagi ko'plab shaharlar va shaharchalar shuningdek, qishloqlar o'rganilib chiqildi . Shahar maqomi berildi. Mustaqilikning dastlabki yillarida shaharlar rivojlanishi biroz sekinlashgan bo'lsada, hozirgi kunda juda tez rivojlanib

bormoqda. O'zbekistonda jami shaharlardan viloyatga bo'ysinuvchi shaharlar soni 25 ta, tumanlarga bo'ysinuvchi shaharlar 93 ta bo'lib , yagona poytaxt shahar respublikaga bo'ysunadi. Eng ko'p shaharlarga ega bo'lgan viloyat Toshkent viloyati, eng kam shaharlar esa Xorazm viloyati hisoblanadi. Toshkent iqtisodiy rayoni respublikada poytaxt mintaqasi, rivijlangan sanoat, qurulish, transport tizimi, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi , o'zining iqtisodiy - ijtimoiy , demografik va urbanistik salohiyati bilan yuqori mavqeni egallaydi.Toshkent viloyatidagi shaharlar: **Chirchiq, G'azalkent, Yangiyo'l, Angren, Olmaliq, Ohangaron, Bekobod, Nurafshon.**

*Respublika katta va yirik shaharlari aholi soning o'sishi*

<b>Shaharlar</b>	1959- yil	1979-yil	1989-yil	2000-yil	2008- yil	2016-yil
<b>Angren</b>	55,8	105,8	131,0	129,0	133,4	149,8
<b>Andijon</b>	130,9	229,7	290,5	334,3	363,8	416,3
<b>Buxoro</b>	69,8	184,8	222,2	239,1	241,8	250,6
<b>Jizzax</b>	15,7	68,4	104,2	128,9	241,8	250,6
<b>Marg'ilon</b>	95,2	110,2	124,1	156,0	172,3	195,8
<b>Navoiy</b>	5,4	83,1	105,5	140,9	124,6	133,6
<b>Namangan</b>	123,5	226,6	304,2	386,2	425,5	493,3
<b>Nukus</b>	31,9	106,9	168,5	206,7	263,8	301,3
<b>Olmaliq</b>	40,5	101,0	113,9	114,7	121,1	124,3
<b>Samarqand</b>	196,5	470,2	364,0	361,1	367,1	491,6
<b>Termiz</b>	22,1	56,0	82,0	113,5	127,4	140,1
<b>Toshkent</b>	911,9	1754,5	2102,0	2135,5	2173,2	2393,2
<b>Urganch</b>	76,2	98,1	126,4	139,2	135,1	138,6
<b>Farg'ona</b>	80,2	173,0	198,3	185,2	188,8	271,0
<b>Chirchiq</b>	65,6	131,2	156,4	143,3	142,2	151,8
<b>Qarshi</b>	19,7	107,4	154,7	201,3	223,1	254,2
<b>Qoqon</b>	105,1	151,1	179,5	197,4	208,7	239,9
<b>Shahrisabz</b>	16,4	32,7	52,4	87,1	92,7	103,5

Bu shaharlarda urbanizatsiya jarayoni jadal rivojlanib bormoqda.Shunday qilib viloyatda hozirgi vaqtda 16 ta shahar 15 ta shaharcha va 75 ta agrosaharcha bor.Shaharlarning 3 tasi yirik ( Chirchiq, Angren, Olmaliq), 3 tasi o'rta, qolgani kichik shaharlardir. Poytaxtning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri negizida undan 60-70 km

radiusdagi hudud bo'ylab 10 ta shahar va o'nlab shaharchalardan iborat. Toshkent aglomeratsiyasi vujudga kelgan. Aglomeratsiya bu - shaharlarning yirik shahar atrofida to'planishi, bu iqtisodiy faoliyat turlarining bir joyda jamlashgan hududi bo'lib u sanoat, transport, ilm - fan va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini birlashtiradi.

Toshkent mamlakatimizdagi eng katta shahar aglomeratsiyasidir. Aglomeratsiya jarayoni nafaqat Toshkentda balki, mamlakatimizning barcha hududlarida kuzatilmoqda, Ayniqsa bu Yirik resurs shaharlarda jadallashib bormoqda. Shaharlar o'z ko'lamiga qarab eng avvalo 3 toifaga bo'linadi: katta, o'rta va kichik toifalarga bo'linadi. Yillar davomida aholi soni o'sib kelgan. Aholi soni ko'payib ishchi kuchi ko'paygani sari sanoat korxonalari qurilib shaharlar vujudga kela boshladi.

Aholining o'sib borishi shaharlar paydo bolishini muhim sababidir. Shaharlar rivojlanishi aglomeratsiyalarning shakllanishiga olib keladi. O'zbekiston aglomeratsiyalari o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarga ega. Ular asosan tog' oldi hududlarda sug'orma dehqonchilik joylarida, elektr transporti, atrofi qishloq xo'jalik ekinlari bilan o'ralgan sharoitda vujudga kelgan. Bizning aglomeratsiyalar shahar emas, balki shahar - qishloq aglomeratsiyalaridir. O'zbekistonning yirik resurs shaharlari va ular negizida shakllanayotgan aglomeratsiyalar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi. Resurslarga boy hududlar asosida sanoat va ijtimoiy infratuzulmaning o'sishi, shuningdek, transport va kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, aglomeratsiyalarning shakllanishiga katta xissa qoshmoqda.

**TAKLIF VA XULOSALAR:** O'zbekistonning yirik resurs shaharlari va ularning aglomeratsiya shakllanishi jarayonini yanada rivojlantirish uchun bir qator takliflar bor, O'zbekistonning yirik resurs shaharlari, ayniqsa, Navoiy, Buxoro, Angren va boshqa sanoat markazlarida asosiy resurslarga asoslangan sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish lozim. Misol uchun, Navoiydagi oltin va uran qazib olishni yangi texnologiyalar bilan boyitish va boshqa sanoat tarmoqlarini ya'ni elektronika yoki materialshunoslik sanoatini rivojlantirish mumkin bu islohatlar ish o'rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy barqarorligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonning yirik resurs shaharlari o'rtasida transport va logistika infratuzilmasini takomillashtirish zarur. Hozirda yo'l mustaqilligini ta'minlash borasida, xalqaro logistika markazi (Angren MIZ), Jizzax maxsus industrial zonasi hamda "Navoi" erkin industrial zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimiz shaharlar geografiasining rivojlanishida muhim ahamyat kasb etadi. Temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, yuk va yo'lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish bu nafaqat aglomeratsiyalarni kengaytirish,

balki mintaqalar o'rtasidagi savdo va sanoat aloqalarini ham mustahkamlashga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. O`quv qo`llanma. Toshkent. 2018 y
2. Эгамбердиева М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари (Тошкент вилояти мисолида). Номз. дисс.-Т., 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси шаҳарсозлик кодекси.-Т.: Ўзбекистон, 2002.
4. Қаюмов А.А., Усмонов З. Урбанизация билан демографик жараёнлар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик Халқаро илмий – амалий анжуман материаллари. - Тошкент, 2007. 56-60 б.
5. Занадворов В. С., Занадворова А. В. Экономика города. – М.: Академ книга, 2003. – 271 с.
6. Зотов А., Раимов Т., Смирнов Н., Ёқубов Б. Ўзбекистон шаҳарлари. Т.: Ўзбекистон, 1965. -282 б.